

MAMLUKAT POYTAHT SHAHARLARI O'ZGARISHINING GEOGRAFIK JIHATLARI

Berdikulova Muxayyo Toshtemirovna
Qarshi davlat universiteti Geografiya kafedrasi o'qituvchisi
Botirov Yodgorjon Zokir o'g'li
Qarshi davlat universiteti magistranti
O'zbekiston, Qarshi

Аннотация: Мақоллада shahar aholi manzilgohlarining shakllanishi, poytaxt shaharlarni vazifalari, mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni hamda poytaxt shahar tanlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar keltirilgan. Davlatlar poytaxt shaharlari o'zgarishining turli sabablari geografik jihatdan o'rganilib, ayrim dunyo mamlakatlari misolida tadqiq etilgan.

Таянч сўзлар: shahar, aholi, aholi manzilgohi, sanoat, poytaxt, transport, turizm, geografik joylashuv, geourbanistika, ekologik muammolar.

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗМЕНЕНИЯ СТОЛИЦ СТРАН

Бердикулова Мухайё Тоштемировна
Преподаватель кафедры географии Каршинского государственного
университета
Ботиров Ёдгорджон Зокир угли
Магистрант Каршинского государственного университета
Узбекистан, Карши

Аннотация: В статье рассматривается формирование городских поселений, функции столиц, их роль в экономике страны, а также факторы, влияющие на выбор столицы. Различные причины смены столиц стран были изучены географически и рассмотрены на примерах некоторых стран мира.

Ключевые слова: город, население, расселение, промышленность, столица, транспорт, туризм, географическое положение, геourбанистическое планирование, экологические проблемы.

GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE CHANGE OF COUNTRY CAPITAL CITIES

Berdikulova Mukhayyo Toshtemirovna
Teacher, Department of Geography, Karshi State University
Botirov Yodgorjon
Master's student at Karshi State University
Uzbekistan, Karshi

Abstract: The article presents the formation of urban settlements, the functions of capital cities, their role in the country's economy, and the factors influencing the choice of the capital city. Various reasons for the change of capital cities of countries are studied geographically and examined on the example of some countries of the world.

Key words: city, population, population settlement, industry, capital, transport, tourism, geographical location, geourbanism, environmental problems.

Shahar – aholisi asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat ko'rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band bo'lgan yirik aholi manzilgohi.

Shahar – bevosita qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lmagan aholi to‘plangan markaz. Shahar atrofidagi tumanlar uchun ma‘muriy va madaniy markaz bo‘libgina qolmay, balki ularning joylashishi va o‘shishiga ham katta ta‘sir ko‘rsatuvchi omil hamdir. Aholi punktlariga Shahar maqomi berilishi uchun aholi soni, bajaradigan funksiyasi: sanoat ishlab chiqarish, tashkiliy-xo‘jalik, madaniy-siyosiy, ma‘muriy va hokazo bosh mezon bo‘lib hisoblanadi. Aholi manzilgohlarini Shahar toifasiga o‘tkazish ma‘lum qonuniy tartibda amalga oshiriladi va chegarasi belgilanadi. O‘zbekistonda 1972 yildan buyon kamida 7 ming aholiga ega bo‘lgan (ungacha 12 mingdan kam bo‘lmasligi lozim edi) hamda ular aholisining 2/3 qismi qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarda band bo‘lgan aholi manzilgohiga shahar maqomi beriladi. Shaharlar bajaradigan vazifalariga ko‘ra - poytaxt, sanoat, transport, turizm, rekreatsiya, din, fan, ilmiy tekshirish va boshqa markazlarga bo‘linadi (<https://uz.wikipedia.org/wiki/Shahar>).

Ma‘lumki, dastlabki ijtimoiy mehnat taqsimoti dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishidir. Shaharlar ijtimoiy mehnat taqsimotining navbatdagi bosqichi, ya‘ni dehqonchilikdan hunarmandchilik va savdoning ajralib chiqishi natijasida paydo bo‘lgan. Ushbu kasbdagi kishilar, bevosita qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmaydilar va binobarin, ular har xil mehnat qurollari ishlab chiqarish, hamda tovar ayirboshlash (almashtirish)da vositachilik vazifasini bajargan, qulay joyda o‘rnashgan aholi punktlarida yashaganlar. Keyinchalik bunday joylar “shahar” deb atalgan (Soliyev A.S. va boshqalar, Shaharlar geografiyasi, T., 2018. 23 b).

Shaharlarning mamlakatdagi eng muhim “nuqta”si – bu uning poytaxtidir. Har qanday mamlakatning jahon hamjamiyatidagi mavqei, xalqaro va diplomatik aloqalar, siyosiy hayoti, eng avvalo, uning poytaxti bilan bog‘liq.

Poytaxt – davlatning bosh shahri, mamlakatning ma‘muriy-siyosiy markazi. Poytaxt odatda, markaziy (umummilliy) hukumat, parlament va sud muassasalari qarorgohi hisoblanadi. Poytaxt alohida boshqaruv tartibi bo‘lgan mustaqil ma‘muriy birlikka ajratiladi. Ko‘pchilik federativ davlatlarda poytaxt

federatsiyaning biron-bir sub'yekti tarkibiga kirmaydigan va federatsiyaning mustaqil sub'yekti hisoblanmaydigan maxsus federal okrug hududida joylashgan bo'ladi. Ko'pchilik mamlakatlarda poytaxt qayerda bo'lishi konstitutsiya matnida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatiladi (<https://uz.wikipedia.org/wiki/Poytaxt>).

Poytaxt shaharlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish bilan odatda Geourbanistika va siyosiy geografiya fanlari doirasida shug'ullanadi. Shuningdek, Geourbanistikaning bir bo'limi sifatida "Kapitologiya" yoki "Poytaxtshunoslik" fani ham rivojlanib bormoqda.

Poytaxt shaharlarni tanlashda quyidagi omillar ta'sir qiladi:

1) Geografik joylashuv – mamlakat poytaxti uning geografik markazida yoki strategik hududda joylashgan bo'lishi;

2) Tarixiy ahamiyati – tarixiy va madaniy jihatdan muhim shahar bo'lishi (ammo doimiy emas);

3) Iqtisodiy ahamiyati – sanoat, savdo va transport markazi bo'lishi;

4) Siyosiy va davlat xavfsizligi – dushman hujumlaridan himoyalani oson bo'lgan joy tanlanishi yoki mamlakatdagi ayrim ma'muriy subyektlar o'rtasidagi bahs-munozaralarga chek qo'yish maqsadida tanlanishi mumkin.

Poytaxt shaharlarning mamlakatdagi boshqa shaharlarga nisbatan bajaradigan funksiyalari, imkoniyatlari keng ko'lamligi bo'lganligi mazkur aholi manzilgohida turlicha ijtimoiy "yuk"larni vujudga keltiradi. Aholi sonining ko'payib ketishi va u bilan bog'liq muammolarning paydo bo'lishi ko'p yillar davomida o'z vazifasini bajarib kelgan poytaxt shaharni o'zgartirilishida asosiy sabablardan hisoblanadi. Dunyoning ko'plab davlatlari turli sabablar bilan - ekologik muammolar, shaharda aholi zichligi ortib ketganligi, mamlakatning turli hududlarini rivojlantirish bilan birga siyosiy va iqtisodiy omillar sababli ham davlat poytaxtlari ko'chirilganligi ma'lum. Jumladan, ayrim poytaxt shaharlari o'zgargan davlatlarni quyida ko'rib chiqish mumkin:

- Indoneziya dunyodagi eng katta arxipelag mamlakat (17 804 ta orolni o'z ichiga oladi) bo'lib, janubi-sharqiy Osiyoda joylashgan, aholisi 290 mln kishidan

ortiq (dunyoda 4 – o‘rinda, 22.03.2025. <https://countrysmeters.info/ru/Indonesia>). Poytaxti Jakarta shahri (Yava orolida) ekologik va iqtisodiy muammolarga uchrayotgani, yuqori darajadagi tirbandliklar mehnat unumdorligini pasayishiga olib kelganligi sababli ko‘chirilishga sabab bo‘lgan. Hozirda shaharning bir qismi har yili 10 santimetrغا cho‘kib bormoqda va toshqinlar yuz berishi xavfi mavjud. Yangi poytaxt Nusantara shahri Kalimantan orolida joylashgan.

- AQSh - okean ortidagi bu davlat uchun bir nechta shahar unga poytaxtlik qilgan. Jumladan, dastlab Filadelfiya, so‘ng Baltimor, Lankaster, Nyu-York shaharlari ham turli yillarda Qo‘shma Shtatlar poytaxti bo‘lgan. 1880 yilda poytaxt Filadelfiyadan Kolumbiya okrugi markazi bo‘lgan Vashington shahriga ko‘chirilgan.

- Rossiya poytaxti 1712 yilgacha Moskva shahri bo‘lgan. XVIII asrning boshlarida Boltiq dengizi bo‘yida Petr I tomonidan Sankt-Peterburg shahri quriladi. Boltiq dengizi orqali Yevropa davlatlariga oson chiqish va Shvetsiya hamda Polshadan bo‘layotgan xavfni kamaytirish maqsadida 1712 yilda poytaxt Sankt-Peterburgga ko‘chiriladi. 1917 yilda sodir bo‘lgan oktyabr to‘ntarishidan so‘ng Rossiyada fuqarolar urushi boshlanib, 1922 yilda poytaxt yana Moskvaga ko‘chiriladi. Hozirgi kungacha shahar Rossiya poytaxti vazifasini bajarmoqda.

- Pokiston - 1949 yilda mustaqillikka erishgandan so‘ng Karachi shahri uning poytaxti deb e‘lon qilinadi. 1958 yilda poytaxt Panjob viloyatida joylashgan Ravalpindi shahriga ko‘chiriladi. 1962 yilda Ravalpindi yaqinida poytaxt uchun alohida shahar qurilishi boshlanib, unga Islomobod deb nom beriladi. Hozirgi kungacha Islomobod Pokiston poytaxti bo‘lib kelmoqda.

- Braziliya poytaxti 1960 yilgacha Rio-de-Janeyro bo‘lib, shahar Atlantika okeani bo‘yida joylashgan. Mamlakatning markaziy va g‘arbiy hududlarini rivojlantirish maqsadida poytaxtni davlat hududining ichkarisiga Brazilia shahriga ko‘chirishga ehtiyoj seziladi. Rio-de-Janeyro poytaxt bo‘lgan davrlarda mamlakatning yana bir yirik shahri San-Paulu shahri ham poytaxtlikka da‘vogarlik qiladi. Hukumat poytaxtni boshqa joyga ko‘chirishi

bilan ushbu muammo bartaraf etiladi va ikki shahar o'rtasidagi raqobat to'xtaydi.

- Nigeriya Afrikadagi aholisi eng ko'p davlat bo'lib, poytaxti 1991 yilgacha Lagos shahri, shu yili poytaxt Abuja shahriga ko'chirilgan. Sababi Lagos shahrining kattalashib ketganligi natijasida ekologik vaziyatning og'irlashganligi hamda shaharda diniy va etnik mojarolarning ham ko'plab sodir bo'lganligidir. Poytaxtni Lagosdan Abujaga ko'chirish haqidagi qaror 1976 yilda qabul qilingan bo'lib, bu paytda Abuja kichik shaharcha maqomida bo'lgan. Yangi poytaxt loyihasi qurilish ishlari 1980 yilda boshlangan. Turli ma'muriy idoralarni yangi poytaxtga ko'chirish 1986 yilda boshlangan va jarayon 1991 yilda tugatilgan. Poytaxt ko'chirilgandan so'ng Abuja tez rivojlanib, shaharda qariyb 1,5 mln dan ortiq aholi yashaydi.

- Tanzaniya – 1996 yilgacha poytaxt Dorus-Salom shahri bo'lgan. Shahar Hind okeani qirg'og'ida joylashgan bo'lib, mamlakatning ichki hududlarida esa iqtisodiy jihatdan ancha sust rivojlanish kuzatilganligi sababli 1993 yilda hukumat mamlakatning markaziy va g'arbiy hududlarini rivojlantirish maqsadida poytaxtni Dodoma shahriga ko'chirishga qaror qiladi. Shahar aholisi 2 mln kishidan ortiq.

- Myanma poytaxti uzoq yillar mobaynida Yangon (Rangun) shahri bo'lib, 2005 yilda poytaxt Neypido shahriga ko'chiriladi. Poytaxtning ko'chirilishiga Rangunda aholi sonining keskin ortib ketganligi, shahar mamlakatning chekka janubiy qismida joylashganligi sabab bo'lgan.

- Misr poytaxti Qohira dunyodagi mashhur shaharlardan biri bo'lib, ko'p yillardan beri poytaxt shahar vazifasini bajarib keldi. XX asrga kelib shahar yanada kengayib, aholisi ko'paydi. Shundan so'ng Qohirada oqava suvlar va chiqindilar bilan bog'liq muammolar ko'paya boshladi. Kengayib borayotgan poytaxt aglomeratsiyasi (20 mln dan ortiq), sanoat korxonalari, avtomobil tirbandliklari shaharda yirik ekologik muammolarni vujudga keltirmoqda. 2000 yilda Misr hukumati yangi shahar qurish va mamlakat poytaxtini ko'chirish bo'yicha qaror

qabul qiladi. Yangi shahar maydoni 30 ming gektar bo'lib, Qohiradan 45 km uzoqlikda, dengiz sathidan 250-300 m balandda joylashgan. 2016 yildan Misr poytaxtini Qohiradan Yangi Qohiraga ko'chirish boshlangan bo'lib, yangi poytaxt kelajakda 5 - 7 mln aholi yashashiga mo'ljallanmoqda.

- Qozog'iston o'z mustaqilligini e'lon qilganda (16.12.1991.) poytaxti Olmaota shahri bo'lib, 1997 yil Oqmo'la (sobiq Selinograd) shahriga ko'chiriladi. 1998 yil shahar nomi Ostona, 2019 yil 23 mart kuni Nur-Sulton deb o'zgartirilib, 2022 yil 17 sentabrda poytaxtga Ostona nomi qaytariladi. Olmaota mamlakatning janubiy-sharqiy qismida, Qirg'iziston bilan chegaraga yaqin joylashgan bo'lib, poytaxt bilan boshqa yirik shaharlar orasidagi masofa uzoqligi sababli ayrim iqtisodiy muammolar kelib chiqqa boshladi. Poytaxt Ostona ko'chirilgandan so'ng ko'plab shaharlar bilan poytaxt orasidagi masofa qisqardi. Poytaxt ko'chirilishi natijasida mamlakatning ichki hududlari rivojlanishi bilan birga Olmaota shahri aholisining keskin oshib ketishi, turli ijtimoiy - ekologik muammolar kelib chiqishi bartaraf etildi. Ostona poytaxt bo'lishidan avval shaharda 300 ming aholi bo'lib, hozirgi kunda aholisi 1,7 mln dan ortiqni tashkil etadi.

Shuningdek, tabiiy geografik, siyosiy – ma'muriy islohotlar, iqtisodiy-ijtimoiy yoki demografik omillar asosida O'zbekiston, Avstraliya, Turkiya, Beliz, Hindiston, Kot-d Ivuar, Gvineya-Bisau, Malavi, Botsvana, Germaniya kabi davlatlar ham poytaxtlarini ko'chirganligi manbalardan ma'lum. Eron, Janubiy Koreya, JAR, Ekvatorial Gvineya kabi davlatlar hukumatlari ham poytaxtlarini turli sabablarga ko'ra ko'chirish rejalarini ishlab chiqmoqda.

Poytaxtlarni ko'chirish iqtisodiy jihatdan juda katta mablag'larni talab qilishi hamda uzoq muddat davom etishi bu jarayonlarga to'sqinlik qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.S.Soliyev, S.K.Tashtayeva, M.M.Egamberdiyeva. Shaharlar geografiyasi. - T., 2018.
2. Бердикулова М. Т. ЕР ШАРИ АҲОЛИСИНИНГ ГЕОДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТИ //Экономика и социум. – 2022. – №. 10-1 (101). – С. 286-289.

3. Berdiqulova M. T. AHOLINI RO'YXATGA OLIHDA GEOGRAFIK VA DEMOGRAFIK MA'LUMOTLARNING O'RNI //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-1 (94). – С. 29-32.

4. G'ayrat Yo'ldosh. Ostonadan Vashingtongacha – turli davlatlar poytaxtini nega o'zgartirgan? <https://kun.uz/72831517?q=%2Fuz%2F72831517>